

O‘ZBEK MILLIY CHOLG‘U SOZLARINING TARIXIY TARAQIYOTI**Husanov Jo‘rabek Shokir o‘g‘li***Qarshi davlat universiteti magistri*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada xalq cholg‘ularining kelib chiqish tarixi va ularga oid ilmiy risolalar haqida so‘z yuritilgan. Shuningdek, soz ustalari, musiqashunos olimlar va tarixiy yodgorliklardan foydalanilib mavzu doirsida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *musiqqa, cholg‘u, xalq, sozanda, xonanda, marosim, risola.*

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab manaviy-marifiy sohaga katta ahamiyat qaratildi. Xalqimiz ma‘naviyatining asosi sifatida milliy istiqlol g‘oyasi va uning asosiy tamoyillari ishlab chiqildi. Uzluksiz ta‘lim tizimidagi barcha fanlar qatori musiqa san‘atiga oid fanlarning ham asosiy ma‘naviy mezonini milliy mafkuraviy o‘zlik, ma‘naviy kamolot, madaniyat va yuksak tarbiya tashkil eta boshladi. Shu bilan birga musiqa oliygohlarida yangi-yangi fanlarni davlat ta‘lim standartlariga kiritildi. Talabalarga o‘zbek mumtoz musiqasi va cholg‘u musiqasi vositasida ularni ma‘naviy va madaniy qobiliyatlarini qolaversa badiiy didini tarbiyalash uchun ularni avvalo mumtoz musiqamizga va mumtoz cholg‘u kuylarimizga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash lozimligini unutmasligimiz zarur.

Har bir xalqning milliy g‘ururi, an‘anasi, qadriyatlari milliy cholg‘ularida ham o‘z ifodasini topgan deyishimiz mumkin. Ulardan taraladigan ovoz ham shu xalqlargagina xos bo‘lgan. Musiqiy cholg‘ularda ijrochilik san‘ati insoniyat ma‘naviyatini tarannum etuvchi vosita hisoblanib, azal-azaldan xalq orasida shakllanib, mohir soz ustalari tomonidan sayqallanib kelayotgan mo‘jizaviy cholg‘u asboblardir.

Xalq cholg‘ulari paydo bo‘lish tarixi uzoq o‘tmishda borib taqaladi. Ma‘lumotlarga qaraganda, ilk musiqa cholg‘ulari eramizdan avvalgi XIII ming yillikda dunyoga kelgan, deb taxmin qilinmoqda.

Musiqa ijrochiligimizda dastlab urma zarbli cholg‘ulari paydo bo‘lgan. Ularning paydo bo‘lishini qadimgi mehnat qo‘shiqlarining ritmik tuzilishi bilan bevosita bog‘lash mumkin. Keyinchalik shovqinli cholg‘ular paydo bo‘ldi. Ijrochilar qarsak chalib ritmni ta‘kidlagan, shovqinli cholg‘ular ta‘sirini ko‘chaytirganlar. Ijrochilarning chapak zarblari o‘ziga xos, takrorlanmas go‘zal holatni vujudga keltirar edi.

Qadimgi sharq madaniyati bag‘rida, o‘zbek xalq cholg‘u asboblari shakllandi. Milliy cholg‘ularimizdan chang, nay, surnay, tanbur, dutor, rubob, g‘ijjak, qo‘bizlar o‘ziga xos tuzilishi tufayli an‘anaviy shakllarda bizgacha etib keldi.

Xalq musiqasi yanada yuksalishi bilan birga, cholg‘ular ham takomillashdi. Asrimizning 30-40-yillarida uyushtirilgan arxeologik ekspeditsiyalar (S.L.Tolstov, V.A.Vyatkin, M.B.Masson va boshqalar rahbarligida) natijasida qimmatli ma‘lumotlarga ega bo‘lindi.

Topilgan madaniy yodgorliklarda turli xil musiqa cholg'ulari: tanbur, rubobsimon cholg'ulari, qonun, ud, nay, surnay, karnay, doirasimon cholg'ular chalayotgan mashshoqlar tasvirlangan. Xalq cholg'ulari O'rta Osiyo aholisining turmushi va mehnat faoliyatining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. Cholg'ular jo'rligida qo'shiq, o'yin va kuylar xalqning katta-katta marosimlari va oilaviy bayramlarida ijro etilgani bizga ma'lumdir.

O'rta Osiyoda o'tkazib kelingan bayramlar ko'proq yil fasllari bilan bog'liq bo'lgan. Shu ma'noda «Navro'z», «Lola sayli», «Hosil bayrami», «Qovun sayli», «Uzum sayli» kabi mavsumiy bayramlar keng tarqalgan. Bunday ommaviy bayramlarda xalq cholg'ulari ansambllari, xonanda va sozandalar hamda raqqosalar o's chiqishlari bilan bayramlarga fayz kiritgan, albatta.

Bayramlarda, madaniy marosimlarda ayniqsa karnay, surnay, doira, nog'ora va urma zarbli musiqa cholg'ulari keng qo'llanilgan. Cholg'uchilar o'z davrining etuk musiqachilari va shoirlari ham bo'lishgan. O'rta asr sharoitida musiqiy ixtisoslashuv maxsus musiqiy ustaxonalarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Bu erda ustoz-shogird an'analari ham qaror topdi va rivojlandi. Ayni shu paytda ansambl ijrochiligi takomillashdi, musiqa san'atining asosiy ko'rinishlari shakllanib cholg'ulari asboblarining yangi-yangi namunalari kashf etildi.

Cholg'ular tarixiga oid ma'lumotlar Forobiyning (873-950) "Katta musiqa kitobi" ("Kitob al-musiqa alkabr"), Abu Ali ibn Sinoning (980-1037) "Davolash kitobi" ("Kitobi ushshifo") qomusidagi "Musiqa haqidagi risola", al-Xorazmiyning (X asr) "Bilimlar kaliti", Sayfuddin Urmoviyning (1216-1294) "Olijanoblik haqida kitobi" yoki "SHarofiya kitobi", Jomiyning (1414-1492) "Musiqa haqidagi risola" kitoblarida bayon etilgan.

Sayfuddin Urmaviy iste'dodli ud cholg'uchisi, xonanda, mashhur sozanda sifatida tanilgan. U Ozarbayjonning Urmaviya shahrida tug'ilgan. Sayfuddinning eng katta yutug'i lad (modus)larning mukammal sistemasini ishlab chiqqanligidadir.

XVII asrda yashagan buxorolik musiqashunos Darvish Ali o'z risolasida tanbur, chang, qonun, rubob, qo'biz, g'ijjak kabi musiqa cholg'ulari haqida batafsil ma'lumotlar bergan. Buyuk Sharq mutafakkirlarining merosi xalq cholg'ularini o'rganish sohasida ham tarixiy qiymatga ega.

Abu Nasr Muhammad Forobiyning mashhur asari «Kitob al – musiqa al -kabir» («Musiqa haqida katta kitob») ulkan ahamiyatga ega. O'rta asr olimi bu kitobida ikki xil musiqa ijrochiligi: ohangni inson ovozi (qo'shiq san'ati) va cholg'ular vositalarida qayta tiklashga ajratadi. Forobiy mohir ijrochi sifatida musiqa cholg'ularining jamiyat hayotidagi o'rnini o'rganishga ahamiyat beradi va u: «... Jangu - jadallarda, raqslarda, to'y - tomoshalarda, ko'ngil ochar bazmlarda hamda ishq - muhabbat qo'shiqlarini kuylashda chalinadigan o'ziga xos cholg'ular bor» deb yozgan edi.

Forobiyning yuqoridagi fikri cholg'ularning nafaqat saroy a'yonlari, balki shahar va qishloq aholisi, hunurmandlar orasida shuningdek, musiqa madaniyatida etakchi o'rin egallaganini isbotlaydi.

Buyuk allomalarimiz, musiqashunos olimlarimiz, musiqiy olamning sir-sinoatlarini ochib beruvchi ko'plab nodir asarlarni va qo'l yozmalarni meros qilib qoldirib ketganlar. Bu xazinani o'rganib undan yetarlicha xulosa chiqarib olish va undagi durdona fikrlarni yoshlar ongiga singdirib, ularning musiqa haqidagi bilimlarini kengaytirib, o'stirib borish ham musiqa ixlosmandlarining zimmasiga yuklatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Murodov Mukhitdin Kadyrovich 2021. The role of independent learning in the formation of professional skills of future music teachers in the system of continuing education. *International Journal on Integrated Education*. 4, 4 (Apr. 2021), 149-152

2. Примов Р. Т., Пирназаров Л. К. Начальный период обучения в классе фортепиано //Современное музыкальное образование: традиции и инновации. – 2018. – С. 228-230.

3. Примов Р. Т., Шоназаров З. У. Роль музыки в формировании личности, духовности и мировоззрения //Вестник науки и образования. – 2022. – №. 4-2 (124). – С. 76-78.